

## YANGI TURDAGI MATOLARGA ISHLOV BERISH XUSUSIYATLARI

*Mirkomilova Bahor Mahmudovna*

*Forish tuman kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yangi turdagi matolar, mo`yna, charm va xom ashyodan tayyorlangan matolarga ishlov berish xususiyatlari muhokama etiladi.

**Kalit so'zlar:** chiqindi; tabiiy mo`yna; bezak; qiyqim; andaza; moda; konstruksiya; trafaret.

### KIRISH

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning assortimentini kengaytirishga intilish, mo`yna sanoati mutaxassislaridan yangi imitatsiyani va pardozlash turlarini yaratish yo`nalishlarida doimiy izlanishlarini taqozo etadi. Bunda tabiiy mo`ynaning xususiyatlaridan keng foydalanish, ya'ni jun qoplami qalinligi, rang, terilarning naqshi bularning o`zi ham bezak sifatida foydalanilib, kiyimlarning turli xil kompozitsiyalarini cheksiz yechimlar orqali olishga imkon yaratadi [3].

### ASOSIY QISM

Yangi turdagi matolarda bezak effektini olish usullari va turli xil o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ularni tasniflash turli xil belgilariga qarab amalga oshiriladi. Bunda mo`yna buyumlarini samarasini ta'minlab bezashda quyidagi belgilarga qaraladi. Bunda bezak effektini ta'minlovchi mo`yna mahsulotlarini bezatish quyidagi belgilarga qarab tasniflanish hisobga olingan: [1, 2]:

- maqсадiga qarab (dekorativ bezakli, bezakli-utilitar);
- tayyorlash usuliga qarab (yuzasi, hajmi, bichish usullariga qarab);
- matoga ta'sir qilish orqali (mexanik, fizik-kimyoviy, aralash);
- biriktirish usuliga qarab, (ipli, namli issiqlik ishlov berish, kimyoviy vositalarni qo'llash orqali hamda yuzaga effektlarni berish orqali).

Mashhur dizaynerlar kolleksiyalarida baxmal va velyurga o'xshatilgan norkali buyumlarini uchratish mumkin. Bunday pardozlashni faqatgina yuqori sifatli terilardangina olish mumkin.

Ikki tomonlama effektlar quyidagilarga: kashtado'zlik; o'rash; matoli va aylantirish texnologiyasi bo'yicha olish.

Terilarni bichishni turli xil usullarga bo'linadi. Foydalanish orqali buyumlar yuzasiga qiziqarli effektlarni yaratish mumkin. Bu usullarni oddiy vamorakkab bichish usullariga ajratish mumkin.

Oddiy usul deb, tanlab olingan teri mahsulotlaridan andaza bo'yicha qirqish deganda terining terining chetlarini, bosh qismini qirqish, bo'yin, oyoqlarni kesish, umuman olganda terini tekislash tushuniladi [3].

Bichish usuli shunday tanlanishi kerakki terining tabiiy chiroyi, mayinligi, yengilligi ko‘rinib tursin.

Terining qirqimlari va bo‘laklaridan turli xil geometrik shakllarga detallar qirqiladi (kvadrat, to‘rtburchak, segment) bu esa chiqindisiz ishlab chiqarish bilan bog‘liq.

To‘rli strukturaga ega plastinani tayyorlash, ko‘p mehnat talab qiladi, lekin undan (palto, kostyum, jiletlar, va boshqalar) hozirgi moda yo‘nalishiga mos holda kiyimlar tayyorlash mumkin.

Yangi texnologiyalarni qo‘llash usullari kengayib borish barobaridanorkadan poloska tayyorlash usuli ishlab chiqilgan bo‘lib ular to‘lqinli chiziqlar yordamida qavariq holatda qilib tayyorlanadi [3].

Fizika-mexanikaviy usulda shakllantirish jarayoni materialning strukturasi «qo‘pol» ta‘sir ettirib amalga oshiriladi. Mexanikaviy (konstruktiv) usulda shakllantirish detallarni bo‘laklarga bo‘lish, konstruktiv elementlarni kiritish, turli jinsli elementlarda sistema hosil qilish bilan amalga oshiriladi.

Faqatgina shakllarni yaratish usullaridan foydalanish uzoq muddatli natijalarni bermaydi, chunki ekspluatatsiya jarayonida doimiy ravishda deformatsiyalash harakatlari paydo bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida mahsulot shaklini yo‘qolishiga olib keladi. Shu sababli kiyim tayyorlashda qo‘shimcha shakllarni joylashtirishni turli xil usullari qo‘llaniladi. Bunda ishlab chiqarishda qo‘shimcha ravishda shaklni tuzatishning turli usullaridan foydalaniladi. Turli xil materiallar uchun yaratish usullari va shakllarni mustahkamlash turlicha bo‘lib, ularni xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Materialning fazoviy shaklini hosil qilish xususiyati shakllanishxususiyati deb nomlansa, shaklbarqarorlik esa mahsulotdan foydalanish sharoitida berilgan shaklni saqlab qolish xususiyatidir.

Materialning shakllanishi uning mexanik xususiyatlari, turli xil deformatsiyalarga qobiliyati: yupqalash, egiluvchanlik, cho‘zish va siqish bilan belgilanadi.

Yupqalash - bu materialning qalinligi bo‘ylab siqilishi bo‘lib, materialni yupqalashda uning strukturasi siqiladi. Har bir narsada yupqalash fazoviy shaklni shakllantirish xususiyatiga ta‘sir qilmaydi, chunki boshqa geometrik o‘lchamlarga qaraganda, materiallarning qalinligi juda kichik, ammo yupqalash paytida materialning tuzilishini qayta tiklash tufayli materialga xos fazoviy shaklni qabul qilish osonroq bo‘ladi [1].

Egilish – bu deformatsiyaning asosiy turi hisoblanib, mahsulotlarda ba‘zi shakl elementlarini yaratish va qismlarning chetlarini bukishdan iborat. Ammo, hajmli shaklni yaratishda, egilish shaklni faqat yoyiladigan sirtlarini olish imkonini beradi (silindrni, konusni). Bunday shakl yetarlicha mustahkamlikka ega emas, chunki egilish

paytda materialning tuzilishini strukturasi mustahkamlaydigan bog‘lanishlar yo‘q. Kiyim detallarining shaklini shakllantirish paytida bukilgan joy materialning boshqa turdagi deformatsiyalari bilan uyg‘un bo‘lishi kerak.

Kiyim-kechak, poyabzal, charm-attorlik buyumlari detallarini fazoviy shakllarini hosil qilishda detallarning alohida qismlarida cho‘zilish deformatsiyasi va materialning siqilishi juda katta ahamiyatga ega. Materialni cho‘zishda va siqishda hosil bo‘ladigan deformatsiyalar anizotrop tuzilishga ega bo‘lib, u xususiyatlari va turli yo‘nalish qiymatlari bilan farq qiladi.

Materiallarda hajmli shakllarni saqlab qolish usullaridan biri, bu namissizlik bilan ishlov berishda ularni deformatsiyalanishidir. Mo‘yna shakllantirilganda charmni namlash cheklanadi. Konvektiv va issiqlikning birgalikdagi ta‘sirida quritish jarayonida namlikni yo‘qotish mo‘ynani shakllanishiga olib keladi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Aytish mumkinki, hajmli shakl elementlarining mustahkamligi ipli biriktirish va bichish usullaridan foydalangan holda olinishi shakllantirilganga nisbatan yuqori bo‘ladi, ammo yuqorida keltirganidek, yarim tayyor mahsulotning yaxlitligini buzish zaruriyati ular istiqbollarini pasaytiradi. Bundan tashqari ipli biriktirish va bichish usullarida ishlab chiqarilgan bezaklar buyumning mehnat sarfini oshiradi. Shu sababli hajmli bezak elementlarini tayyorlash usullarini ishlab chiqishda elementlarni hajmli shakllari mustahkaligiga alohida e‘tibor qaratish zarur.

Kollagen tarkibli materiallarining eng muhim xususiyatlari ularning uzoq muddatga chidamliligi va ishlash ishonchliligi xususiyatlaridir [2]. Ular nafaqat tabiiy kimyoviy va tola tuzilishi, balki materialning murakkab makro tuzilish tabiati bilan ham belgilanadi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Xodjaeva M.T. Tabiiy mo‘ynadan tikilgan shlyapa shakllarini kompyuter yordamida loyihalash usulini ishlab chiqish: Diss.k.t.s.-M: MGALP, 2016.-136s.
2. Mo‘yna va moda. Kuz-qish 2016
3. Temirova, G. I. (2020). Tabiiy mo‘ynadan dekorativ elementlarni qo‘llanish va mustahkamlash usullarini ishlab chiqish uslubiyotlari.. 2018 yil.
4. Ne‘matova, L. X. (2017). Har xil vazn va yosh guruhlari uchun kiyimning siluet shakllarini tavsiya qilish. Fan va ta‘lim masalalari, (2 (3)), 72-73.